

ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

**Axmedova Nasiba Achilovna, katta o‘qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Annotatsiya: Ushbi maqola Oliy ta’lim muassasasida ilmiy va innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rivojlantirish muammolari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion faoliyat, tendensiya, ilmiy-tadqiqotchilik, maxsus konstruktorlik, ishlab chiqarish, texnik.

Bugungi davrda nafaqat xalqaro oliy ta’lim maydonida, balki mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida ham innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish yangi umumhujon tendensiyasi bo‘libgina qolmay, aksincha, tabiiy jarayon sifatida barcha oliy ta’lim muassasalari faoliyatining kun tartibiga kirib keldi. Jumladan, innovatsion faoliyat oliy ta’lim muassasalarining ilmiy faoliyati bilan birga uyg‘unlashgan holda ta’lim muassasasi faoliyatining tayanch yo‘nalishlariga ham singib kirib, bu yo‘nalishlarni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari bugungi kunda duch kelayotgan eng asosiy muammo – bu davlat tomonidan oliy ta’lim sohasiga moliyalashtirishning qisqartirilishi bo‘lib, buning salbiy ta’sirini OTM larning o‘zlari ilmiy, innovatsion, tadbirkorlik salohiyatlarini ishga solish orqali o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilishi g‘oyasi olg‘a surilmoqda. Bu bora-bora oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari bozori talablariga mos holda faoliyat yuritishga, o‘z ilmiy-pedagogik jamoalarining kuch-g‘ayratlarini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish imkoniyatlarini ochadi, yakuniy hisobda oliy ta’limning ijtimoiy ne‘mat sifatida olib qaralishiga va OTM larning bu ne‘matdan foydalanish borasidagi tutgan o‘rniga yangicha munosabatlarning shakllanishiga olib keladi. Tan olib aytish lozimki, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari xalqaro oliy ta’lim sifatini baholovchi reytinglarning yuqori pog‘onalariga hali kirib borishlari uchun imkoniyatlar yetarli emasdir. Shung uchun OTM larda ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish – bu oliy ta’lim tizimining nafaqat ertangi kunini belgilab beruvchi, balki mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan gurkirab rivojlanishini ta’minlovchi omillardan biridir.

Ayni davrgacha oliy ta’lim tizimida ilmiy va innovatsion faoliyatning mohiyati, uni tashkil etish va samaradorligini ta’minlash, ilmiy-innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari va bu sohadagi faoliyatni moliyalashtirish masalalari bo‘yicha milliy va xalqaro miqyosda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgandir.

Jumladan, K.Muxamedxonova (2014) o‘z ilmiy-tadqiqot ishida iqtisodiyot infratuzilmasi va jamiyatning transformatsiyalashuvi jarayonida ta’lim tizimining tuzilmasini optimallashtirishning zaruriyati yuzasidan xulosalar beradi.

A.Sherov o‘z navbatida ilmiy maqolasida “...ta’lim tizimni moliyalashtirishga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi, ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalar, milliy an’analar va ta’lim tizimini tashkil etish va

boshqarishning o'ziga xosligi kabi"lardan iborat deb tavsiflaydi. Lekin ularning barchasida ilmiy-innovatsion faoliyatni raqamli iqtisodiyot sharoitlarida tashkil etish yo'llari hali o'rganilmagan va bu mazkur bitiruv-malakaviy ishida o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini ifodalaydi va unda bildirilgan qarashlarning ilmiy asoslanganligini ta'kidlaydi.

Oliy ta'lim muassasasida ilmiy va innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rivojlantirish darajasi ko'p jihatdan fan va iqtisodiyot real sektorining integratsiyalashuvi darajasini, bu o'zaro hamkorlikning shaklini belgilab beradi, oliy ta'lim mutaxassislarining kompetentlik xususiyatlariga va yakuniy hisobda ularga talabning kuchliligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bunda talabalarga ta'lim berishdagi urg'u bilimlarni iste'mol qilishdan fikrlashning mustaqil tashabbuskor tipini shakllantirishga, bo'lajak bitiruvchi-mutaxassisning ijodiy ilmiy salohiyatini rivojlantirishga olib o'tiladi. Bu shu bilan bog'liqki, mustaqil ilmiy ish jarayonida talaba odatdagi tartibda o'qish jarayonidagiga qaraganda reallikning har xil tomonlari bilan to'qnash keladi, bu esa uni ilmiy muammolarni aniqlashga, ularni hal qilish yo'llarini topishga va tadqiq qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga undaydi.

Tasdiqlash mumkinki, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati ilmiy faollikning boshqa shakllarini faollashtiradi, ilmiy-innovatsion yo'nalishlarda faoliyat olib borishning doirasini kengaytiradi.

Bularning barchasi oliy ta'lim muassasasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotchilik ishlari darajasining rivojlanishi uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratish zaruratini belgilaydi:

- ilmiy xodimlarni tayyorlash sifatini va amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik chora-tadbirlarning darajasini oshirish;

- oliy ta'lim muassasalari talabalari va doktorantlari hisobiga yosh istiqbolli kadrlarni mustahkamlash yo'li bilan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-innovatsion salohiyatini jang'arib borish;

- ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini dolzarblashtirish va tijoratlashtirish;

- xalqaro, milliy va OTM lararo ilmiy-tadqiqotchilik dasturlari va grantlarda faol ishtirok etish va shu kabilar.

Ta'kidlab o'tish lozimki, oliy ta'lim muassasasining kafedralarida amalga oshiriladigan ilmiy va innovatsion ishlanmalar hamda tadqiqotlar natijalari yakuniy hisobda o'quv-metodik materiallarga aylanadi va ta'lim jarayoniga joriy qilinadi. Mana shunday qilib, bu bakalavrlar, magistrilar va doktorantlarning tayyorgarlik sifatini oshirishning harakatchan va ta'sirchan metodiga aylanadi.

Talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik ishlarini tashkil etish deganda talabalarga ilmiy-metodik yordam ko'rsatishga va talabalarning ilm-fan bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun moddiy-metodik ta'minotni yaratishga yo'naltiriladigan OTM ning barcha bo'linmalari faoliyatini qamrab oluvchi chora-tadbirlar tizimi tushuniladi va ularga quyidagilar kiritiladi:

- talabalarni boshqaruv muammolarini ilmiy tadqiq qilish metodlariga o'rgatish;

- talabalar tomonidan nazariy materiallarni ketma-ketlikda o'rganishning, ilmiy rivojlanishning intellektual asoslarini shakllantirish uchun o'quv rejasidagi o'quv fanlari bo'yicha amaliy va mustaqil ishlarni bajarishning yaxlitligi va didaktik asoslanganligi;

- talabalarning bilishga doir va ilmiy faoliyatini tashkil etishning shakllari, usullari va metodlaridan didaktik va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish;

- faol o'qitishning muammoli va boshqa shakllaridan foydalanish asosida talabalarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- professor-o'qituvchilar va talabalarning zaruriy aloqalarini amalga oshirish;

- talabalarga ilmiy-tadqiqotchilik ishlarini amalga oshirishda metodik va amaliy yordamni o'z vaqtida ko'rsatish;

- talabalarining diqqatini ilmiy asoslash va hal qilishni talab etadigan dolzarb masalalarga qaratish;

- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga imkon beruvchi ochiq ilmiy muhitni yaratish;

- talabalarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va moyilliklarini hisobga olish bilan vaqt byudjetini to'g'ri taqsimlashda ayrim talabalarga metodik yordam ko'rsatish;

- talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik ishlari tuzilmasi va hajmini hamda ularning kelgusida ilmiy asoslangan holda tuzatib borilishini tizimli o'rganib borish.

Aytib o'tish lozimki, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik ishlarini tashkil etish quyidagicha bir qator chora-tadbirlar majmuasi orqali amalga oshiriladi:

- yuqori kurs talabalarining mustaqil ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini olib borishga psixologik tayyorligi darajasini aniqlash;

- talabalar bilan mustaqil ilmiy tadqiqotlar, ularni rejalashtirish, tuzilmasini belgilash va ishlanmalarning ilmiy yangiligini baholash mezonlari haqida suhbatlar o'tkazish;

- talabalarga ilmiy-tadqiqotchilik ishlarini tashkil etishning ratsional usullarini o'rgatish;

- talabalarga ilmiy-tadqiqotchilik ishlari uchun tanlovlar haqidagi axborotlarni izlab topishning elektron tizimida ishlash ko'nikmalarini o'rgatish;

- talabalar uchun individual ilmiy maslahatlarni tashkil etish, ilmiy seksiyalar, to'garaklarni olib borish;

- talabalarga ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini muntazam tayyorlab borish va nashr qilishni o'rgatish.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik ishlari tizimi amal qilishining asosiy vazifalari bo'lib esa quyidagilar hisoblanadi:

- ta'lim olishni davom ettirayotgan talaba-tadqiqotchilarni, talaba-izlanuvchilarni ratsionalizatorlik va ixtirochilik yo'nalishidagi ijodiy jarayonlarga jalb qilish;

- tadqiqotchi-talabalar uchun keng doiradagi tadqiqotchilarning ilmiy-ijodkorlik faoliyatining turli xil shakllari amal qilishi va rivojlanishi borasida milliy va xorijiy ilmiy-texnik tajribalarga, ilmiy va ilmiy-texnik ishlanmalarning natijalariga asoslanadigan qulay shart-sharoitlarni yaratib berish;

- ilmiy-ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bilan birga ta'lim olishni ham davom ettirayotgan talabalar shaxsining har tomonlama kamol topishi va rivojlanishi, ularda o'z-o'zini obyektiv baholash qobiliyati shakllanishi, ijodiy jamoalarda ishlash ko'nikmalari orttirilishi, tashkilotchilik va innovatsion-ratsionalizatorlik faoliyatiga jalb etilishiga ko'maklashish;

- ilmiy stajirovka va tajriba almashishga talabalarni ham jalb etish.

Yuqorida bildirib o'tilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va innovatsion faoliyatining kelgusi davrdagi rivojlanishi ayni paytlarda OTM da tahsil olayotgan magistrlar va bakalavrlar orasidan iqtidorli va salohiyatli nomzodlarni izlab topish va ularni kelgusi davrlardagi ilmiy, innovatsion va tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlab borish samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Muxamedxonova K. (2014) Sotsialnaya zashita: na poroge novogo etape//Ekonomicheskoye obozreniye. – Toshkent, -№1(169). –B. 30-39.
2. Sherov A. (2014) Ta'lim tizimini moliyalashtirishda xorij tajribasi//MoliY. – Toshkent, -№5. –B. 131-135.
3. Vixodseva, YE. A. Upravleniye nauchno–issledovatel'skoy deyatelnostyu studentov / YE. A. Vixodseva, M. N. Guseva // «Studencheskaya nauka» seksiya «nauchniy potentsial studenchestva – universitetu. Vzgl'yad cherez pokoleniya»: material IX Mezhvuzovskoy nauchno–prakticheskoy konferensii. – M.: GUU, 2014. – № 1. – 323 s. ISSN 1991-5497.
4. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6).
5. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 3(1).
6. Yaxshiyeva, M. Sh., Kamolova, Sh., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualniye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).

